

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**DIALECTISMS IN MO YAN'S THE REPUBLIC OF WINE AND THEIR REPRESENTATION IN THE RUSSIAN AND UZBEK TRANSLATIONS****Saidakhon Saydinosirovna Saydiganiyeva***Doctoral Researcher**State University of Oriental Studies**E-mail: saydiganiyeva86@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Mo Yan, The Republic of Wine, translation of dialectisms, Shandong dialect, literary translation, translation strategies, spoken language, realia, equivalence.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: In the work The Republic of Wine by the contemporary Chinese writer Mo Yan, a large number of dialectisms are employed, some of which pose significant difficulties for translators. This article examines how the original dialectisms used in the text are rendered in translation and identifies the methods by which these dialectal elements have been translated from Chinese into Uzbek and Russian. The study analyzes translation strategies applied to convey dialectal features while preserving the stylistic and cultural specificity of the original work.

MO YANNING "MUSALLAS MAMLAKATI" ASARIDAGI DIALEKTIZMLAR VA ULARNING RUS VA O'ZBEK TARJIMALARIDA AKS ETISHI**Saidaxon Saydinosirovna Saydiganiyeva***Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining**Tayanch doktoranti**saydiganiyeva86@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Mo Yan, "Musallas mamlakati", dialektizmning tarjimasi, Shandun shevasi, badiiy tarjima, tarjima strategiyalari, og'zaki nutq, realiya, ekvivalentlik.

Annotatsiya: Zamonaviy xitoy yozuvchisi Mo Yanning "Musallas mamlakati" asarida juda ko'p dialektizmlar qo'llanilgan bo'lib, bu dialektizmlarning ba'zilarini tarjima qilish tarjimon uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Maqolada asardagi asl dialektizmlarning tarjimada berilishi tadqiq qilinib, dialektizmlar xitoy tilidan o'zbek va

rus tillariga qaysi usul bilan tarjima qilinganini
ochib berilgan.

ДИАЛЕКТИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ МО ЯНЯ «ВИННАЯ РЕСПУБЛИКА» И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПЕРЕВОДАХ

Саидахон Сайдиносировна Сайдиганиева

Базовый докторант

Ташкентского государственного университета востоковедения

E-mail: saydiganiyeva86@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мо Янь, «Винная республика», перевод диалектизмов, шаньдунский диалект, художественный перевод, переводческие стратегии, устная речь, реалии, эквивалентность.

Аннотация: В произведении современного китайского писателя Мо Яня «Винная республика» широко используются диалектизмы, перевод некоторых из которых представляет значительную сложность для переводчика. В статье исследуется передача диалектизмов оригинального текста в переводе, а также раскрываются способы их перевода с китайского языка на узбекский и русский языки. Анализируются переводческие стратегии, направленные на сохранение стилистической и культурной специфики произведения.

Kirish. Til va madaniyatlar o'rtasidagi katta farq tarjimon uchun, ayniqsa, dialektizmlarni tarjima qilish jarayonida murakkabliklar tug'diradi. Mo Yanning "Musallas mamlakati" asarida dialektizmlar juda faol qo'llanilgan bo'lib, bu holat tarjima jarayonida sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltirganini kuzatish mumkin.

V. N. Komissarovning fikriga ko'ra, dialektizmlarning badiiy asarda qo'llanishi ikki xil ma'noga ega. Birinchidan, sheva asarda muloqot tili sifatida xizmat qilib, asliyat tili darajasida qo'llaniladi. Ikkinchidan, dialektizmlar ayrim qahramonlarga xos nutqiy xarakteristika berish maqsadida ishlatiladi. Birinchi holatda asliyat tilining shevaga xosligi asar mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi va tarjimondan faqatgina ushbu shevani tushunish, uning adabiy tildan farqli jihatlarini bilish talab etiladi. Ikkinchi holatda esa tarjimon oldida gapiruvchining hududiy mansubligiga oid qo'shimcha ma'lumotni tarjimada yetkazish vazifasi turadi.[Komissarov, 2011]

Mo Yanning "Musallas mamlakati" asari og'zaki nutq unsurlari, hududiy dialektizm, jargon hamda qo'pol so'zlarga boy bo'lib, asarning rus hamda o'zbek tarjimalarida tarjimonlar bu kaloritni o'zbek hamda rus tilida ifodalashga harakat qilishgan, hamda o'zbek va rus og'zaki tillariga xos bo'lgan ekvivalent so'zlar bilan ifodalashga harakat qilib, asardagi qahramonlarning

nutqini o'zbek hamda rus kaloritga moslab tarjima qilishgan. Asarning rus hamda o'zbekcha tarjimalarini tahliliy o'rganish jarayonida dialektizmlarning to'g'ridan-to'g'ri, erkin hamda tafsiliy tarjima uslublarini kuzatishimiz mumkin.

Asarning rus hamda o'zbek tarjimalaridagi dialektizmlarning berilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular asosan o'zbek hamda rus tilidagi ekvivalentlarni berish bilan, hamda dialektizmlar qatnashgan gaplarni asosan o'zbek tilining og'zaki til uslubi bilan tarjima qilish ko'proq kuzatish mumkin. Faqat Shandong hududi uchungina xos bo'lgan ayrim taomlarning nomi rus hamda o'zbek tillarida mavjud bo'lgan taomlar nomidan ekvivalent sifatida foydalanilgan.

我们山东人吃地瓜单饼大葱，净长了些大个子，街上美女虽不成群却也随处可见…
(“酒国”第 276 页)

Biz, shandunliklar, ko'k piyozli kartoshka noni yeymiz, shu bois bo'ydan ham Xudo bergan, ko'chalarda go'zal ayollarimiz ko'rganlarning ko'zini kuydiradi, to'g'ri, yoppasiga go'zal deb bo'lmasa ham, yuzdan bitta, mingdan bitta albatta, topiladi. (“Musallas mamlakati” 302-bet)

Мы, шаньдунцы, едим картофельные оладьи с зеленым луком, так ведь и ростом вымахиваем будь здоров, и красавиц на улицах, может не толпы, но одну-другую встретишь где угодно. («Страна вина» стр.346)

Yuqoridagi asardan olingan parchada “地瓜单饼大葱” shandunliklar odatda istemol qiladigan taomning nomi bo'lib, u yubqa hamirdan qilinib, uning ichiga shirin kartoshka hamda ko'k piyoz solinadi. O'zbek hamda rus tarjimalarida har bir tildagi o'quvchiga tushunarli bo'lgan, shu tildagi mavjud bo'lgan ovqat nomlari bilan tarjima qilingan. O'zbek taomlarida ko'k piyozli non mavjud bo'lganligi uchun bu so'z “单饼” dānbǐng “non” sifatida, rus tiliga “оладьи” sifatida tarjima qilingan. Rus tilida “оладьи” so'zi tuxumdan qilingan quymoq bo'lib, bu taom nomi rus o'quvchiga tushunarli bo'lgani uchun tanlangan.

那时我还是个懵头懵脑的青皮后生，从贫穷的农家踏入酒的神圣殿堂，对酒的了解极少。（“酒国”第 280 页）

U vaqtda men yosh, miyasi bo'm-bo'sh talaba edim. Bu musallas pazlik ehromiga kambag'al dehqon oilasidan kelib qolgan edim, musallas nima ekanini bilmasdim. (“Musallas mamlakati” 305-bet)

В то время я был еще молодым пустоголовым студентом. Попал в этот храм виноделия из бедной крестьянской семьи, в винах ничего не смыслил. («Страна вина» стр.350)

Yuqoridagi gapda asliyat tilida berilgan “青皮后生 qīngpí hòushēng” “yosh bezori”, «молодой хулиган» sifatida tarjima qilinib, ikki tildagi tarjimada ham bu dialektizmlar “talaba”

sifatida tarjima qilingan. Asarda qahramon o‘z-o‘zini kamsitish uchun bunday dialektizmlardan foydalangan. Tarjimonlar esa, asar ma’nosidan kelib chiqib, dialektizmni “talaba” sifatida tarjima qilishgan.

Asarda “俺 ān” “men, mening” deb tarjima qilinuvchi olmosh dialektizmi, adabiy xitoy tilidagi (putonghua) “我 wǒ” “men, mening” kishilik olmoshiga mos kelib, asarda ko‘p marotaba qo‘llanilgan. Bu olmosh dialektizmi qahramon obraziga qishloqdan kelgan, o‘qimagan inson nutqini ochib berishga hizmat qilgan.

“好汉，好汉，您能来吃馄饨是老汉的造化，快收起您的家什，俺害怕。”

- Hoy, yaxshi odam, hoy, yaxshi odam, tag‘in ham omadingiz bor ekanki, pilak sho‘rva sotuvchi – menga duch kelibsiz, manavi narsangizni oling, yuragim uvushib ketyapti. (“Musallas mamlakati” 262-bet)

- Мил человек, мил человек, такая удача, что вы вышли на меня с моими клетками, заберите только эту вашу штуку, а то просто оторопь берет.

Yuqoridagi gapda yozuvchi qariyaning topponchani ko‘rganda uning “俺害怕 ānhàipà” “men qo‘rqapman” nutqi, aynan qariyaga qishloqdan ekanligi, uning nutqiga aynan olmosh dialektizmi orqali qishloqilik obrazini berganini ko‘rishimiz mumkin. Ikki til tarjimasida ham tarjimonlar bu qahramonning nutqiga obraz berishga harakat qilgani, hamda og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan, “hoy”, “tag‘in”, “yuragim uvushib ketyapti” kabi rus tarjimada esa “мил человек”, “вашу штуку”, “оторопь берет” kabi og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan so‘zlardan foydalanganligini kuzatishimiz mumkin.

Asarda “老子 lǎozi” “men” (og‘zaki nutqda inson o‘zi haqida mag‘rurlanib hazil, kinoya bilan gapirgan paytda qo‘llaniladi). “老子 lǎozi” asarda juda ko‘p marotaba (29 marta) qo‘llanilgan bo‘lib, asarning o‘zbek va rus tarjimalarida bu so‘zning tarjimasi ba‘zida tushib qolganini, ba‘zida esa “men” tarzida tarjima qilganini kuzatsak bo‘ladi.

只要两秒钟我就可以用黑洞洞的枪口对准这两个人的胸脯，哪怕下地狱，哪怕进坟墓，狗杂种，老子不怕你们。（“酒国”第44页）

“Yana ikki soniya va to‘pponcha og‘zini manavi nusxalarning ko‘ksiga tirasam bo‘ladi! U yog‘i xoh jahannamga tushay, xoh go‘rga kiray, senlardan qo‘rqmayman, itdan tarqaganlar”. (“Musallas mamlakati” 47-bet)

“Ещё пара секунд, и можно наставить в грудь этим типам ствол пистолета. А там хоть ад, хоть могила, не боюсь я вас, сучье отродье”. (“Страна вина” стр. 56)

“二等？他妈的，你们欺负老子”（“酒国”第76页）

- Ikkinchi nav? Kimni laqillatmoqchi bo‘lyapsanlar? (“Musallas mamlakati” 85-bet)

- Второй сорт? Надуть меня, ети его, хотите?! (“Страна вина” стр.99)

Yuqoridagi jumalardan ko‘rinib turibdiki, “men” so‘ziga mag‘rurlik, kinoya tusini beruvchi “老子 lǎozi” dialektizmi, birinchi gapda o‘zbek tiliga egalik qo‘shimchasi sifatida tarjima qilinib, “老子 lǎozi” xos bo‘lgan manmanlik, mensimaslik ohangi “manavi nusxalar” orqali ifodalangan. Birinchi jumlaning rus tilidagi tarjimasida “老子 lǎozi” – “я” tarzida tarjima qilinib, rus tilida manmanlik, mensimaslik ohangi kishilik olmoshi yordamida ifodalash qiyin bo‘lganligi sababli, bu ohang “этим типам” yordamida ifodalangan. Agar asl nusxadagi matnga qaraydigan bo‘lsak “两个人 liǎnggèrén” xitoy tilidan o‘zbek tiliga “ikkita odam”, rus tiliga esa “два человека” tarzida tarjima qilinishi kerak edi.

Ikkinchi jumlada “老子 lǎozi” “men” o‘zbek tiliga umuman tarjima qilinmay, “meni laqillatyapsizlar” iborasi, so‘roq gap tarzida, o‘zbek og‘zaki nutqiga xos bo‘lgan uslubda tarjima qilinyapti. Rus tilidagi tarjimaga e‘tibor bersak, bu yerda “老子 lǎozi” “меня” tarzida tarjima qilinib, mensimaslik, mag‘rurlik ohangi “ети его” orqali ifodalanib kelyapti.

Yuqoridagi jumalarning asl hamda tarjimalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak “老子 lǎozi” mag‘rurlik hamda mensimaslik ohangi bilan aytilgan “men” dialektizmining o‘zbek va rus tillarida to‘liq mos keluvchi ekvivalenti bo‘lmaganligi sababli, bu ohang gapdagi boshqa so‘zlar bilan ifodalangan.

Asarda aynan shu hududgagina tegishli bo‘lgan dialektizmlar ham uchrab, bu realiyaga xos bo‘lgan dialektizmlardan “炕 kàng” realiyasini misol qilib keltirishimiz mumkin. “炕 kàng” bu shimoliy xitoyliklar loy yoki g‘ishdan uzunchoq shaklda qurilgan, ustida somondan qilingan gilamcha solingan, ostki qismida mahsus o‘tin yoqib isitishga mo‘ljallangan teshik bo‘lib, unga dudburun ulangan uxlash uchun mo‘ljallangan joy hisoblanadi. Bu realiyani ikki tildagi tarjimon qay usulda tarjima qilganini quyidagi jumalardan ko‘rishimiz mumkin.

七婶七叔坐在炕上。炕沿上坐着小炉匠、大个子刘、方九、张保管，他们与我一样，在这里消磨漫长的冬夜，每夜都来，风雪无阻拦。

(“酒国”第 34 页)

Yettinchi Xola bilan Yettinchi amaki kanda o‘tirishardi. Kanning yonginasidan pechkachi bola, daroz Liu, Fan To‘qqizinci va omborchi Zhang joylashgan. Men kabi ularning bari har kuni uzoq qish oqshomlarida vaqt o‘tkazish uchun kelardilar va ularni na shamol, na qor to‘xtata olardi. (“Musallas mamlakati”39-bet)

Седьмая Тётушка с Седьмым Дядюшкой сидят на кане. Рядом с каном устроились малыш-печник, Долговязый Лю, Фан Девятый и кладовщик Чжан. Все они, как и я, каждый день приходили сюда коротать долгие зимние вечера, и их не останавливал ни ветер, ни снег. (“Страна вина” стр.46)

老革命摘下猎枪挂在墙上，脱掉大衣扔在炕上，搓搓手，说：“烧劈柴，睡火炕，这是我的特殊化。”（“酒国”第 244 页）

- - Keksa inqilobchi miltiqni devorga osdi, shinelini katga tashladi va qo‘llarini ishqalarkan, so‘radi:

- Tarasha yoqib, issiq katda uxlash – mening imtiyozim!... (“Musallas mamlakati” 267-bet)

Старый революционер повесил ружье на стенку, бросил на лежанку шинель и, потирая руки заявил:

- Топить дровами и спать на тёплой лежанке – моя привилегия. (“Страна вина” стр.306)

Yuqorida asarda “炕 kàng” dialektizmi qo‘llanilgan ikkita jumla olingan. Asl nusxadan olingan birinchi jumlada “炕” kàng realiyasining talaffuzi transkriptsiya shaklda olingan bo‘lib, ikkita tarjimada ham bu so‘zga izoh keltirilgan. O‘zbek tarjimada “炕 kàng” – “Kan – an’anaviy Xitoy uyidagi pechkali joy”, rus tarjimada – “Кан – отапливая лежанка в традиционном китайском доме” tarzida izoh keltirilgan. Asarning “炕 kàng” so‘zi kelgan boshqa jumlaning o‘zbek va rus tarjimasiga e’tibor bersak, o‘zbek tiliga “kan” sifatida transkriptsiya shaklida olingan realiya “kat” tarzida, rus tilida esa rus tiliga xos bo‘lgan “лежанка” so‘zi bilan ifodalangan. Bu tarjimada o‘zbek tilidagi “kat” deb tarjima qilingan so‘zning ma’nosi tushunarsiz bo‘lib qolgan.

Quyidagi jumlada so‘z birikmali dialektizm “挤鼻子弄眼 jībízínòngyǎn” “imo-ishora bilan belgilar bermoq, yuzini burushtirmoq” ning tarjimada berilishini ko‘rib chiqsak bo‘ladi.

1. “少给我挤鼻子弄眼出洋相，快找水去。”（“酒国”第 129 页）

- Hozir hazil qilishga balo bormi, galvars! Tez suvga chop! (“Musallas mamlakati” 141-bet)

- Ничего тут рожи строить и дурака валять! Быстро чеши за водой! (“Страна вина” стр.161)

Ikkita tildagi tarjimaga qaraydigan bo‘lsak, “挤鼻子弄眼 jībízínòngyǎn” dialektizmi o‘zbek tili og‘zaki tiliga xos bo‘lgan “hazil qilishga balo bormi” shaklida, rus tiliga esa “рожи строить и дурака валять” rus og‘zaki nutqiga mos shaklda tarjima qilingan.

Mo Yan asarlarini tarjima qilishdan oldin shandong shevasini o‘rganish tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi, asl bilan tarjima asarlarini o‘qish davomida ba’zi bir dialektizmlarning ma’nosi tarjimonga tushunarli bo‘lmagani uchun tarjima qilish jarayonida ma’no o‘zgarishiga olib kelgan. Bunday holatlar asar tarjimasida ko‘p kuzatilgaman, ammo mavjud.

Masalan shandong shevasida 嫚 mǎn dialektizmi bo‘lib, u yosh qiz bolani bildiradi, adabiy tildagi “女孩子 nǚháizi” “qiz, qiz bola” so‘ziga mos keladi. Masalan: “还不快叫咱嫚来谢谢这

位大哥” “Qizimizni tezro bu akasiga rahmat etishga chaqirmaymizmi”. Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida bunday jumlaning ko‘rishimiz mumkin:

秃头喊：“嫚她娘，给金大爷倒碗酒来。（“酒国”第 352 页）

- Enajonim Man! – qichqirdi tepakal. – Janob Jinga bir chirpit quyib ber. (“Musallas mamlakati” 385-bet)

Матушка Мань! – крикнул плешивый. – Налей ка господину Цзиню чарочку. (“Страна вина” стр.438)

Yuqoridagi jumlada “嫚她娘” juda qo‘pol ibora bo‘lib, “Ey qiz, onangni” deb tarjima qilinadi. Lekin ikkala tarjimada ham “嫚 mān” “qiz, yosh qiz” dialektizmini “Man” ismi sifatida tarjima qilingan.

Asar asli va tarjimalarini o‘rganib chiqish jarayonida quyidagi hulosalarni chiqarishimiz mumkin.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida juda ko‘p hududiy shevaga oid dialektizmlar qo‘llanilib, ular asarga o‘zgacha kalorit, bezak va kuchli emotsional bo‘yoqdorlikni beradi. Asarda deyarli barcha sifatlar kuchaytirilgan darajada qo‘llanilib, aynan shu sifat dialektizmlari orqali shandong shevasini o‘ziga xosligi ko‘rinib turadi. Dialektizmlarning juda ko‘p miqdorda qo‘llanilishi asar qahramonlariga so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan, erkin va adabiy til me‘yorlaridan chiquvchi o‘zgacha, oddiy xalq xayotini va so‘zlashuv nutqini ochib beruvchi muhitni kuzatishimiz mumkin. O‘zbek va rus tarjimalarida ushbu muhitni saqlab qolish, qolaversa, o‘zbek va rus og‘zaki nutqiga xos bo‘lgan so‘zlardan ko‘proq foydalangan holda asar ruhini berishga harakat qilingan. Dialektizmlarni tarjima qilishda ba’zida o‘zbek va rus tillarida mavjud bo‘lgan ekvivakentlar bilan, ba’zida esa xitoy hududiy shevaga xos bo‘lgan realiyalarni transkripsiyasini berib, ularga izoh berish orqali tarjima qilishga harakat qilingan. Dialektizmlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, erkin hamda tavsifiy tarjima usullaridan foydalangaligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. М..ЭТС, 2011. -79 с.
2. 莫言：《碎语文学》，北京：作家出版社 2012 年版，第 232 页到 233 页。
3. 胡群昌.山东方言在莫言作品中的运用[D].福州：福建师范大学，2009
4. 李洪燕.莫言小说中方言词语研究.四川：四川师范大学，2017
5. 莫言. 酒国. –杭州：浙江文艺出版社，2017.1 （2003.2 重印）
6. Мо Ян. Мусаллас мамлакати. – Т.: « Узбекистон» , 2018. -392 б.
7. Доу Цзин. Анализ диалектизмов в произведениях Мо Ян и способы их перевода с китайского языка на русский. Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Гуманитарные науки, 2020. №4. С.140-143